



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**

## XX ASR NASRIDA MAQOLLAR VA ULARNING UMUMINSONIY XUSUSIYATLARI PROVERBS IN 20TH-CENTURY PROSE AND THEIR UNIVERSAL CHARACTERISTICS

**Botirov Shahzodjon Pirmamat o‘g‘li**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti*

*Lingvistika (o‘zbek tili) I bosqich magistranti*

E-mail: [botirovshahzodjon@gmail.com](mailto:botirovshahzodjon@gmail.com)

OCRID: 0009-0003-7777-5330

*Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti v/b., f.f.d. N.S.G‘ulomova taqrizi  
ostida*

**DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./SBIA1467](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./SBIA1467)**

**Annotatsiya.** *Maqolada XX asr o‘zbek nasrida maqollarning badiiy-madaniy vazifasi hamda ularning umuminsoniy mazmuni lingvokulturologik yondashuv asosida tadqiq etiladi. Maqollar xalq tafakkurining ixcham, ammo mazmunan teran shakli sifatida nasriy asarlarda muallif g‘oyasini kuchaytiruvchi, qahramon xarakterini ochuvchi va axloqiy xulosani umumlashtiruvchi vosita ekanligi asoslanadi. Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom va Said Ahmad ijodi misolida maqollarning milliy mentalitet bilan birga universal insoniy qadriyatlarni ifodalashi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *maqol, o‘zbek nasri, lingvokulturologiya, milliy mentalitet, umuminsoniy qadriyatlar.*

**Annotation.** *The article studies the artistic and cultural function of proverbs in Uzbek prose of the 20th century and their universal human content based on a linguoculturological approach. It is based on the fact that proverbs, as a compact but deep form of folk thinking, are a means of strengthening the author’s idea in prose works, revealing the character of the hero and summarizing the moral conclusion. The expression of universal human values along with the national mentality of proverbs is scientifically analyzed using the examples of the works of Abdulla Qahhor, Gafur Ghulom and Said Ahmad.*

**Keywords:** *proverb, uzbek prose, linguoculturology, national mentality, universal human values.*

Maqollar xalqning asrlar davomida to‘plangan ijtimoiy, tarixiy va hayotiy tajribasini mujassamlashtirgan, ixcham shaklda ifodalangan, chuqur mazmunli hikmatli birliklardir. Ular xalq tafakkurining mahsuli bo‘lib, og‘zaki ijod tizimida muhim o‘rin egallaydi. Turli xalqlarda mazkur janr har xil atamalar bilan yuritiladi: o‘zbek tilida maqol, tojik tilida zarbulmasal, rus tilida poslovitsa, arab xalqlarida naql, turkiy xalqlarda esa ota so‘zi nomi bilan ataladi.



“Maqol” so‘zining kelib chiqishi arab tilidagi “qavl” – aytmoq, so‘zlam oq fe‘liga borib taqaladi. Maqollarning asosiy xususiyati shundaki, ularning tarkibidagi har bir so‘z ma‘no jihatdan muhim bo‘lib, uni o‘zgartirish yoki almashtirish mumkin emas. Chunki maqollar til taraqqiyoti jarayonida barqarorlashgan va tayyor qolip sifatida shakllangan. Ushbu janr deyarli barcha xalqlarning folklorida uchraydi va hajmi, shakli hamda vazifasi jihatidan umumiy belgilarni namoyon etadi. Hatto ularning nomlanishida ham mazmuniy yaqinlik kuzatiladi. Masalan, arab tilidagi “qavl” nutq va so‘z ma‘nosini anglatadi, tojikcha “zarbulmasal” iborasi fikrni misol orqali ifodalashni bildiradi, rus tilidagi “poslovitsa” so‘z vositasida xulosa chiqarishga xizmat qiladi, turkiy xalqlarda qo‘llaniladigan “ota so‘zi” esa ajdodlar hikmatini yodga olish ma‘nosini anglatadi. Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida uchraydigan “sav” atamasi ham aynan shu mazmunda qo‘llangan [Madayev, 2013: 95].

XX asr o‘zbek nasri milliy ongning rivojlanishi hamda badiiy tafakkurning yangilanishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda xalq og‘zaki ijodi elementlari, xususan, maqollar, matallar, frazeologizmlar yozma adabiyot tarkibiga faol o‘rnashib, badiiy kontekstning semantik qatlamini rang-baranglashtirdi. Maqollar xalqning tarixiy tajribasi va ma‘naviy xotirasini mujassam etgan barqaror birliklar bo‘lib, nasriy asarlarda muallif va o‘quvchi o‘rtasida umumiy madaniy kommunikatsiyani shakllantiradi [Rahmatullayev, 1978: 2028]. O‘zbek adabiyotida maqol va hikmatlar xalq tafakkurining badiiy ifodasi sifatida qadimdan muhim o‘rin tutib kelgan. Mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy ijodi bu an‘ananing yuksak namunasi hisoblanadi. “Badoye’ ul-vasat” devonidagi g‘azallarning deyarli barchasida hikmatli mushohadalar yetakchi o‘rin egallab, ular hayotning mazmun-mohiyati, inson va jamiyat, adolat va haqiqat, dunyoning o‘tkinchiligi kabi masalalarni umumlashtiradi [Navoiy, 1987: 47]. Ushbu hikmatlar mazmunan xalq maqollariga yaqin bo‘lib, keyingi adabiy jarayonlar, jumladan, XX asr o‘zbek nasrida maqollarning faol qo‘llanishiga g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilgan.

E.Ochilov tomonidan tuzilgan “Navoiy hikmatlari” jamlanmasida “Badoye’ ul-vasat” devonidan mazmunan ajratilgan ikki yuz o‘ttiz to‘qqizta hikmat kiritilgani Navoiy g‘azallarining naqadar hikmatga boy ekanini ko‘rsatadi [Abjalova, Gulomova, 2022: 182-187]. Ushbu hikmatlar olam va odam, shaxs va jamiyat, tiriklik va o‘lim, halol va harom, yaxshilik va yomonlik kabi umuminsoniy tushunchalarni qamrab oladi. Bu jihat ularni nafaqat mumtoz she‘riyat namunasi, balki universal axloqiy-falsafiy meros sifatida baholash imkonini beradi. Masalan, Navoiy g‘azallaridan birida shoir Jamshid va Sulaymon obrazlari orqali dunyo boyligi va hokimiyatning bevafo ekanini ta‘kidlaydi. Jamshid jomi va Sulaymon uzugi timsollari orqali ifodalangan bu fikr dunyoning o‘tkinchiligi haqidagi umumlashma xulosani beradi. Mazkur hikmat mazmunan XX asr nasrida uchraydigan “Dunyo moli va mansab vafo



qilmaydi” kabi maqollar bilan uyg'unlashadi. Nasriy asarlarda bunday maqollar ko'pincha qahramon hayotiga berilgan axloqiy baho yoki muallif pozitsiyasini ifodalovchi vosita vazifasini bajaradi. Yana bir g'azalda Navoiy insonning hayotga munosabati uning taqdirini belgilashini ta'kidlaydi. Shoirga ko'ra, dunyo mushkul yoki oson bo'lishi insonning o'z qarashiga bog'liqdir. Ushbu hikmat XX asr o'zbek nasrida keng tarqalgan “Inson taqdiri uning o'z qo'lida” mazmunidagi maqollar bilan mazmunan mushtarakdir. Bunday maqollar nasriy asarlarda qahramonning ichki dunyosi va ruhiy holatini ochishda muhim badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi [Navoiy, 1987: 47]. Shunday qilib, Alisher Navoiy g'azallaridagi hikmatlar xalqona tafakkur mahsuli sifatida shakllangan bo'lib, ularning mazmuniy mohiyati XX asr o'zbek nasrida maqollar orqali davom ettirilgan. Bu holat o'zbek adabiyotida hikmat va maqollarning tarixiy uzviyligi hamda umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashdagi badiiy imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi [Navoiy, 1987: 335].

Navoiydan keyingi mumtoz adabiyotimizda qalam tebratgan Bobur Mirzo adabiyotni teran tushungan, xalq maqollarini juda yaxshi bilgan, shu sababdan ularni o'z o'rnida to'g'ri ishlata bilgan. “Boburnoma”da juda ko'p maqollar, hikmatli so'zlar ishlatilgan. Xususan, asarda shunday bayt keltiriladi.

Bormoqqa ne maskan muyassar,

Turmoqqa ne davlat muqarrar [Bobur, 1989: 67]

Yuqoridagi bayt mumtoz adabiyotimizda inson hayotining o'tkinchiligi, dunyo ne'matlarining beqarorligi va taqdirga bog'liqligini ifodalovchi falsafiy mazmunga ega. Ushbu bayt lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinganda, unda Sharq xalqlariga xos bo'lgan dunyoqarash, diniy-e'tiqodiy qarashlar hamda madaniy qadriyatlar mujassam ekanini ko'rish mumkin. Sharq madaniyatida inson bu dunyoda mehmon sifatida qaraladi. Boylik, mansab, shon-shuhrat esa vaqtincha berilgan sinov sifatida talqin qilinadi. Ushbu bayt ham ana shu qarashni ifodalaydi: inson ketishga ham aniq maskan topolmaydi, bu dunyoda qolishga ham abadiy baxtga ega bo'lolmaydi. Demak, hayot doimo o'zgarib turadi, hech narsa barqaror emas. Bugungi davrda ham mazkur mazmun xalq maqollari va og'zaki nutqda davom etib kelmoqda. Masalan, “Bu dunyo – o'tkinchi”, “Mol-dunyo – mehmon”, “Bugun bor, ertaga yo'q”, “Dunyo – karvon, odam – musofir” kabi maqollar bayt mazmuniga sinonim sifatida foydalansak bo'ladi. Bundan tashqari asarda “Qopudag'ni qopmasa, qariguncha qayg'urur” hamda uning mantiqiy davomi va jumlaning kuchaytirish uchun xizmat qilgan bugungi maqollarga ma'naviy mos tushadigan bayt qo'llangan.

Korhoro bevaqt boyad just,

Kori be vaqt sust boshad sust! [Bobur, 1989: 67]

Agar odam bugun qilishi kerak bo'lgan ishni vaqtida qilmasa, keyinchalik pushaymon bo'lib, umr bo'yi afsus chekadi. Ya'ni: ishni kechiktirish – kelajakda muammolarga sabab bo'ladi. Ishni vaqtida qilish kerak, vaqti o'tgan



ish sust va samarasiz bo'ladi. Bu bayt fors-tojik tilida yozilgan bo'lib, mazmunan shuni bildiradi:

Har bir ishning o'z vaqti bor.

Kechiktirilgan ishning foydasi kam bo'ladi.

Xalq o'tmishida sodir bo'lgan muhim tarixiy voqealar shubhasiz uning psixologik qiyofasida unutilmas o'rin qoldiradi hamda lingvokulturologik asosga ega bo'ladi. Milliy madaniyat va milliy psixologiyaning xususiyatlari, uning ichki emotsional tomonlari maqol va matallarda, o'xshatish va nutqda yaqqol namoyon bo'ladi. Til, falsafa va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakli, ammo keng mazmunga ega bo'lgan bir janridir. Har bir millat o'zining o'tkir xulosalangan maqollariga, tasviriy iborasiga ega. Tildagi bu tasvirlilik bevosita xalqning hayoti va maishiy turmushi, uning tarixi va tabiati bilan bog'liq bo'ladi. Lingvokulturologik yondashuv maqollarni til hodisasi bilan birga madaniy konsept sifatida talqin etish imkonini beradi. Shu sababli XX asr nasrida maqollarning badiiy qo'llanilishi va ularning umuminsoniy mazmunini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

XX asr o'zbek nasri jadidchilikdan tortib mustaqillik arafasigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davr nasriga Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov kabi adiblar ijodi kirib, ular milliy adabiyotda realistik, psixologik va falsafiy nasr maktabini yaratdilar. Bu asr o'zbek badiiyati juda keng va serqirra bo'lib, unga bir necha avlod adiblari ijodi kiradi. O'zbek xalq maqollari dunyodagi boshqa xalqlarda bo'lgani kabi mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangdir. Ular mazmuniga vatan, xalq, mehnat, oila, oliy insoniy fazilatlar kabi inson hayotida muhim hisoblangan masalalar haqidagi hukmlar singdirilgan. Shuning uchun ham bu maqollarni xalqning og'zaki qomusi bilan tenglashtirish odat tusiga kirgan. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asaridan o'rin olgan maqollarda ham vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hamjihatlik, mardlik, vafodorlik kabi g'oyalar o'z ifodasini topgan. Bu maqollar ning xalq hayotida tutgan o'rni va ahamiyati shu jihatdan ham muhimki, ularda inson maishiy hayotidagi hamma lavhalarga mos hikmatli fikrlar bayon etilgan [Abjalova, G'ulomova, 2022: 187]. Har bir millatning maqollarida milliy ruh, mentalitet va madaniy xususiyatlar aks etgan bo'lsa-da, ularning mazmun-mohiyatida umumiylik, ya'ni umuminsoniy xususiyatlar ustuvorlik qiladi. Shu jihatdan maqollar nafaqat milliy madaniyatning mahsuli, balki butun insoniyatga xos ma'naviy meros sifatida baholanadi.

Maqollarni mavzu jihatdan umuminsoniy xarakterlariga ko'ra bir qancha asosiy toifalarga ajratish mumkin.

### Maqollarning mavzu jihatidan turlari

- Mehnatsevarlik va dangasalik bilan bog‘liq maqollar
- Axloq va odob-axloq haqidagi maqollar
- Aql, bilim va tafakkurga oid maqollar
- Do‘stlik va insoniy munosabatlar haqidagi maqollar
- Oila va jamiyatga oid maqollar

#### 1-chizma. Maqollarni mazmuniga ko‘ra tasnifi.

Mehnat haqidagi maqollarda millatimizning dunyoqarashi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini aks ettiradi. Quyida maqollarni lingvokulturologik jihatdan izohini ko‘rib chiqamiz. “*Mehnatsiz topilgan mol hisobsiz ketar*” hikmatida mehnat va mol (boylik) konseptlari qarama-qarshi qo‘yilgan. Mehnatsiz topilgan mablag‘lar barakasiz bo‘lishi, shuningdek, halol mehnatga asoslangan turmush falsafasi ifodalangan. “*Mehnatsiz turmush – tuzsiz osh*” maqolida esa “osh” leksemasi omonim so‘z bo‘lib, jumlada o‘ziga xos ma‘noni yuzaga chiqargan. “Osh” so‘zini bu o‘rinda o‘zbek milliy taomi sifatida ham, yoki umumiy taom sifatida tushunsak ham ma'noga putur yetkazmaydi. Osh-hayot, turmushni ifodalasa, tuz-hayotning lazzati, uning mazmunini anglatadi. Mehnatsiz hayot ma‘nosiz va mazmunsiz bo‘lishi obrazli ifoda bilan berilgan. “Osh” obrazi orqali o‘zbek milliy madaniyati bilan uzviy bog‘lanish kuzatiladi. “*Mehnatsiz turmush – o‘g‘irlik*” hikmatida axloqiy bo‘yoq kuchli tarzda ifodalangan. O‘g‘irlik konsepti orqali halollik va mehnat o‘zaro uyg‘unlashadi. Dangasalik axloqan qoralanadi. Shuningdek, xalqimizning mehnatni turmush farovonligi asosi hamda ijtimoiy adolat mezonini sifatida namoyon qiladi. “*Mehnatsiz et yemaydi, bit yeydi*” maqolida boshqa maqollardan farq qiladigan unsurlar ya'ni biologik obraz (bit) ko‘magida keskin kinoya yuzaga chiqqan. “Et” – farovonlik, totuvlik ramzi bo‘lsa, bit- xorlik, pastlik, sharmandalik ma‘nolarini o‘ziga singdirgan.

Mehnat mavzusidagi maqollarni juda ko‘plab davom ettirish mumkin. Jumladan, “*Ming so‘zdan bir ish yaxshi*” maqolida amalda bajarilgan vazifa va harakatning so‘zda qolishi zidlantiriladi. Lingvokulturologik jihatdan o‘zbek xarakteridagi ishbilarmonlik, amaliy natija yuqori baholanib, so‘zdan ko‘ra amal ustun qo‘yiladi. Shu bilan birga, bu o‘rinda milliy xarakterimizdagi pragmatizm aks etgan. “*Mehnat – rohatning poydevori*” hikmatida esa mehnat abstrakt tushuncha bo‘lsa-da, poydevor metafarasi orqali uyg‘unlashtirilgan. Ramziy jihatdan poydevor mustahkamlik, barqarorlikni; rohat esa maqsadni g‘oyaviy jihatdan namoyon qilgan. Bu guruhdagi maqollar mehnatning qadri, harakat va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Mehnat barcha xalqlar turmushining



asosi muvaffaqiyatining negizi bo'lgani uchun bu maqollar umuminsoniy xarakterga ega. Dangasalik bo'yoqlari bor maqollardan esa mehnatsevarlikka zidlantiriladi va u yo'ldan qaytishga undaydi.

Halollik, vijdon, adolat, sabr, saxovat kabi axloqiy me'yorlar barcha jamiyatlar uchun umumiydir. “*Bola – aziz, odobi undan aziz*”. “Aziz” so'zi o'zbek mentalitetida eng yuksak qadriyatni anglatadi. Bola – Allohning qadri ne'mati, lekin undan ham muhim narsa – odob. Bu maqol o'zbek xalqining axloqni biologik yaqinlikdan ustun qo'yishini ko'rsatadi. “*Bolaning erkasi – bitning sirkasi*” maqolida metaforik ifoda orqali ortiqcha erkalash salbiy hodisa sifatida berilgan. “Bitning sirkasi” – keraksiz, zararli, noxush narsa timsoli. O'zbek madaniyatida bola mehr bilan, ammo me'yor asosida tarbiyalanishi kerak. Haddan ortiq erkalash esa tarbiyasizlikka olib keladi. Inson aqli va bilimi taraqqiyot omili sifatida har doim qadrlangan. Inson qadrini belgilovchi mezon – tarbiya. Odob – inson mohiyatining o'lchovi. “*Odob bozorda sotilmas*” maqolida “Bozor” – obraz sifatida moddiy qadriyatlar ramzi. “Odob” esa moddiy emas, ijtimoiy-ma'naviy konsept. O'zbek xalq tafakkurida tarbiya – oilada va jamiyatda shakllanadi, sotib olinmaydi, singdiriladi. “*Odob – kishining zeb-u ziynati*” maqoliga qaraydigan bo'lsak zeb-u ziynat – tashqi chiroy, bezak ma'nosini anglatadi. Odob esa tashqi ko'rinishdan ham muhimroq ichki bezak sifatida talqin qilinadi. O'zbek madaniyatida insonni baholashda xulq-atvor ustuvor tushuncha sifatida qaraladi. “*Odob – oltindan qimmat*” bu ifoda tarkibidagi Oltin – eng yuqori moddiy boylik timsoli, iqtisodiy yetuklik ramzi. Odobni undan ham ustun qo'yilishi xalqning ma'naviyatga yo'naltirilgan mentalitetini aks ettirgan.

“Yaxshi bola – to'rga tortar, yomon bola – go'rga” – bu maqolda “To'r”, “Go'r” ramzlari orqali lingvokulturologik xulosalar oydinlashadi. To'r-uyda eng hurmatli joy, ulug'lash, hurmatga sazovor bo'lish timsoli. Go'r-halokat, sharmandalik, uyaltirish belgisi. Maqolda bola obrazi orqali xalqimiz milliy konseptiga oid oilaning sha'ni, uning yuzi ifodalangan. O'zbek xalq maqollarida “aql” konsepti markaziy ma'naviy qadriyat sifatida talqin etilib, u inson hayotining yo'naltiruvchi mezon sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, “*Aql aynimas, oltin chirimas*” maqolida aql va oltin qiyosiy parallel asosida berilib, moddiy va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi ierarxik munosabat ifodalanadi. Oltinning chirimasligi moddiy barqarorlikni anglatadi, aqlning aynimasligi uning vaqt va makonga bo'ysunmas, boqiy ma'naviy kuch ekanini ko'rsatadi. Bu maqollar lingvokulturologik jihatdan o'zbek xalq tafakkurida bilim va idrokning eng yuksak qadriyat sifatida talqin qilinganligini tasdiqlaydi. Masalan, “*Aqli kamning azobi ko'p*” maqoli esa sabab-oqibat munosabatiga qurilgan bo'lib, inson boshiga tushadigan mushkulliklarning manbai sifatida tafakkur yetishmasligini ko'rsatadi. Bu yerda “azob” tushunchasi jismoniy emas, balki ijtimoiy va ruhiy muammolar majmui sifatida talqin etiladi. Maqol mazmuni shuni anglatadiki, aql insonni muammolardan asraydigan ichki mexanizm



vazifasini bajaradi. Ushbu qarash nafaqat milliy tafakkurga, balki umuminsoniy axloqiy-falsafiy an'analarga ham xosdir. *“Aql aqldan quvvat olar”* hikmatida esa aqlning individual emas, balki ijtimoiy hodisa ekaniga urg'u beriladi. Inson tafakkuri muloqot, maslahat va tajriba almashinuvi jarayonida boyib borishi ta'kidlanadi. Bu g'oya jamoaviy fikrlash va maslahatlashuvni qadrlagan xalq mentalitetining ifodasidir. Mazkur maqol XX asr o'zbek nasrida ham muhim badiiy tamoyil sifatida namoyon bo'lib, ko'plab asarlarda qahramonning kamol topishi aynan ijtimoiy muhit ta'siri orqali tasvirlanadi

Umuman olganda, “aql” konsepti bilan bog'liq maqollar milliy tafakkur mahsuli bo'lishiga qaramay, mazmunan bilim, tafakkur, ongli hayot va mas'uliyat kabi umuminsoniy qadriyatlarni ifodalaydi. Shu bois bunday maqollar XX asr o'zbek nasrida faqat folklor unsuri sifatida emas, balki qahramon xarakterini ochuvchi, muallif pozitsiyasini ifodalovchi va hayotiy xulosani umumlashtiruvchi samarali badiiy vosita sifatida qo'llanilgan. *“Do'st – do'stning oynasi”* maqolida do'stlik shaxsni anglash va baholash vositasi sifatida talqin etiladi. “Oyna” metaforasi orqali chin do'st insonning ichki va tashqi qiyofasini o'ziday aks ettiruvchi, kamchilik va fazilatlarini yashirmay ko'rsatuvchi shaxs ekanligi ifodalanadi. Lingvokulturologik jihatdan bu maqol o'zbek mentalitetida samimiylik va rostlikka asoslangan do'stlik munosabatlari yuksak qadrlanishini ko'rsatadi. Mazmunan esa u “inson o'zini boshqalar orqali anglaydi” degan umuminsoniy g'oya bilan mushtarakdir [Mahmudov, 2010: 75].

*“Do'st otgan tosh bosh yormas”* maqolida do'stning tanqidi yoki qattiq gapi zarar emas, balki foyda keltirishi ta'kidlanadi. “Tosh” obrazi kinoyaviy ma'noda ishlatilib, do'st tomonidan aytilgan achchiq haqiqatning insonni sindirmasligi, aksincha, uni to'g'ri yo'lga boshlashi ifodalanadi. Bu maqol jamiyatda tanqidni to'g'ri qabul qilish madaniyatiga oid muhim axloqiy mezonni ifodalaydi va turli xalqlarda uchraydigan “achchiq haqiqat foydali” g'oyasi bilan umuminsoniy xarakter kasb etadi.

*“Do'st – oshkor, dushman – yashirin”*. Mazkur maqolda do'st va dushman konseptlari qarama-qarshi qo'yilib, ularning munosabat uslubi ochib beriladi. Do'st ochiq va oshkora, dushman esa makkor va pinhona bo'lishi ta'kidlanadi. Bu yerda axloqiy mezon sifatida oshkoralik va samimiyat yuksaltiriladi. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan maqol ijtimoiy munosabatlarda ehtiyotkorlik va farosat zarurligini uqtiradi.

*“Chin do'st tug'ishganing bilan teng”* maqoli ham yuqoridagi maqollar bilan mushtarak mazmunga ega hikmat desak bo'ladi. Ushbu maqolda do'stlik rishtasi qon-qarindoshlik darajasiga ko'tariladi. “Chin do'st” tushunchasi sadoqat, fidoyilik va ishonch kabi fazilatlar bilan bog'lanadi. Bu maqol o'zbek xalq tafakkurida ijtimoiy yaqinlikning faqat biologik emas, balki ma'naviy asosga ega ekanini ko'rsatadi. Mazmunan esa u do'stlikni universal insoniy qadriyat sifatida talqin etadi.

Do'stlik haqidagi ushbu maqollar o'zbek xalqining ijtimoiy munosabatlar, umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va shaxslararo ishonch borasidagi qarashlarini mujassam etadi. Ular milliy madaniyat mahsuli bo'lishiga qaramay, mazmunan samimiyat, sadoqat, rostgo'ylik va ishonch kabi umuminsoniy qadriyatlarni ifodalaydi. Shu bois bunday maqollar XX asr o'zbek nasrida qahramonlar xarakterini ochish va muallif g'oyasini umumlashtirishda samarali badiiy vosita sifatida qo'llanilgan [Mahmudov, 2010: 75].

“*Oila tinch – yurt tinch.*” Bu maqolda mikrojamiyat (oila) va makrojamiyat (davlat, yurt) o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ifodalangan. Oila jamiyatning eng kichik, ammo eng muhim ijtimoiy instituti sifatida talqin qilinadi. XX asr o'zbek nasrida (A.Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor asarlarida) oiladagi nizolar jamiyatdagi inqiroz ramzi sifatida beriladi. Mazkur maqol umuminsoniy xususiyatga ega bo'lib, Sharq va G'arb adabiyotida ham oilaviy barqarorlik jamiyat tinchligining asosi sifatida talqin qilinadi. “*Oila qo'sh ustunli ayvon*”. Maqolda oila ikki ustunga – er va xotonga qiyos qilinadi. Bu metafora oilaviy tenglik, mas'uliyat va hamkorlik g'oyasini ifodalaydi. Agar ustunlardan biri qulsa, ayvon buziladi. XX asr nasrida ayol va erkak munosabatlarning tenglik asosida qurilishi muhim masala sifatida ko'tarilgan. Ushbu maqol oilani faqat biologik emas, balki ijtimoiy-axloqiy birlik sifatida talqin etadi.

“*Suvsiz hayot bo'lmas, vafosiz – oila*”. Bu maqolda suv – hayot, vafo – oila timsoli sifatida qo'llanadi. Vafo oilaning ma'naviy tayanchi ekani ko'rsatiladi. XX asr nasrida vafosizlik oilaning yemirilishiga olib keluvchi asosiy sabab sifatida tasvirlangan. Maqol umuminsoniy axloqiy me'yor – sadoqat g'oyasini ilgari suradi. “*Oshsiz uy bor-u janjalsiz uy yo'q*”. Mazkur maqol hayotning realistik falsafasini ifodalaydi. Har qanday oilada kelishmovchilik bo'lishi tabiiy, ammo bu janjallar oilaning yemirilishiga emas, balki uni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. XX asr realizmida oilaviy tortishuvlar hayotiy haqiqat sifatida badiiy aks ettirilgan. Maqol sabr-toqat va murosa kabi umuminsoniy fazilatlarni targ'ib qiladi.

Maqollar xalqning ko'p asrlik ijtimoiy, tarixiy va ma'naviy tajribasini mujassam etgan ixcham, ammo mazmunan teran folklor birliklari sifatida milliy tafakkurning muhim ko'rinishidir. Ular til hodisasi bo'lish bilan birga, madaniy va axloqiy konseptlarni o'zida jamlagan lingvokulturologik birliklar hisoblanadi. Shu bois maqollarni o'rganish faqat tilshunoslik doirasidagina emas, balki madaniyatshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Alisher Navoiy g'azallaridagi hikmatli mushohadalar mazmunan xalq maqollariga yaqin bo'lib, keyingi adabiy jarayonlar, xususan, XX asr o'zbek nasrida maqollarning faol qo'llanishiga g'oyaviy va badiiy asos bo'lib xizmat qilgan. Navoiy hikmatlari orqali shakllangan umuminsoniy g'oyalar – adolat, aql, mehnat, odob, sadoqat, hayotning o'tkinchiligi kabi tushunchalar XX asr nasrida maqollar vositasida



yanada hayotiy va ta'sirchan ifoda topgan. XX asr o'zbek nasrida maqollar muallif pozitsiyasini ifodalash, qahramon xarakterini ochish hamda badiiy xulosani umumlashtirishda muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mehnat, axloq, aql, do'stlik va oila kabi mavzulardagi maqollar mazmunan milliy ruhni aks ettirgan bo'lsa-da, ularning asosida umuminsoniy qadriyatlar yotgani bilan ajralib turadi. Bu holat maqollarni faqat milliy madaniyat mahsuli emas, balki butun insoniyat uchun mushtarak ma'naviy meros sifatida baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, maqollar XX asr o'zbek nasrida folklor unsuri sifatida emas, balki chuqur semantik va madaniy yuklamaga ega bo'lgan badiiy vosita sifatida faol qo'llanilgan. Ularning lingvokulturologik tahlili o'zbek adabiyotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uzviyligini ochib berishda muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

### Adabiyotlar:

1. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun leksik birliklarni semantik teglashning ikki yondashuvi. // TATU ilmiy-texnika va axborot-tahliliy jurnali, – Toshkent, 2024.– №2 (70). – B. 64-74.
2. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasi. // O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, – Toshkent: ToshDO'TAU, 4 (1) /2023. – B. 14-31.
3. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546.
4. Alisher Navoiy. Badoye' ul-vasat. – Toshkent: Fan, 1987. – B.47.
5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2013. – B.72.
6. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – B.75.
7. O'zbek xalq maqollari. 2 jildlik. – Toshkent: Fan, 1988. – B.160.
8. Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: Fan, 2018. – B.18.
9. Rahmatullayev Sh. O'zbek xalq maqollari va frazeologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – B.28.
10. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., “The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus”, 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi: 10.1109/UBMK 63289. 2024. 107 73477.
11. Z.M.Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – B.67.
12. Abjalova M., Gulomova N. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences.



Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | Procedia of Theoretical and Applied Sciences.

13. Сирожиддинов, Ш. У. Х. Р. А. Т. Жизнь и творчество Алишера Навои, гуманистические идеи в его произведениях. *INFOLIB:ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала" E-LINE PRESS"*, (1), 66-71.